

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI**

2021-yil 9-aprel

375-SH/T Buyruq

Farg‘ona sh.

**O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Farg‘ona politexnika instituti boshlang‘ich tashkilot faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son Farmoni va 2017-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3138-son Qaroriga muvofiq, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta‘lim muassasalaridagi yoshlar manfaatlarining haqiqiy himoyachisi bo‘lishiga erishish, ta‘lim sifatini oshirishga doir jarayonlarni o‘rganish hamda muassasada jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadida Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqining 2017-yil 22-avgust kungi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta‘lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 39-Q/Q hamda 10-Q/Q-sonli qo‘shma qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son Farmoni va 2017-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3138-son Qarori institutda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Farg‘ona politexnika instituti boshlang‘ich tashkilot Yoshlar kengashi Talabalar kengashi etib yuritilishi, keyingi o‘rinlarda “Yoshlar kengashi” - “Talabalar kengashi” nomi bilan rasmiylashtirilishi va Talabalar kengashi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga, kengash a‘zolarining ro‘yhati 2-ilovaga, 8 ta fakultet Talabalar kengashi tarkiblari 3-ilovaga, Talabalar turar joylarida “Talabalar Kengashi” faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi nizom 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. 2020-yil 29-avgust kuni Farg‘ona politexnika institutida Talabalar kengashini tashkil etish hamda talabalarning rag‘batlantirish jamg‘armasi mablag‘laridan ijtimoiy himoyaga muxtoj va faol bo‘lgan talaba-yoshlar uchun rag‘bat ajratish masalasini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan kengashning ZOOM dasturida o‘tkazilgan yig‘ilishning 1-sonli bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 yanvar kungi “Oliy ta’lim muassasalari talabalariga to‘lanadigan stipendiyalar miqdorlarini belgilash hamda stipendiyalar tayinlash va to‘lash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi №59-sonli Qaroriga muvofiq “Farg‘ona politexnika institutida talabaning shaxsiy reytingi va akademik guruh reytingi bo‘yicha jamg‘arma mablag‘lari hisobiga talabalarga moddiy rag‘batlantirishlarni tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ining 6- va 7-bandlariga, shuningdek, Talabalar Kengashi nizomiga asosan talabalarni moddiy rag‘batlantirish hamda moddiy yordam masalalarini talabalarni rag‘batlantirish jamg‘arma mablag‘lari hisobidan Talabalar kengashi muhokamasi natijasida institut rahbariyatiga takliflar kiritish vakolati Kengash tashkil etilgan kundan e’tiboran kuchga kirganligi belgilansin.

5. 2021-yil “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, aholi salomatligini mustahkamlash yili” davlat dasturi ijrosiga muvofiq, Axborot resurs markaziga kirish yo‘lagining o‘ng tomonida joylashgan xonani qayta Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti uchun ajratilishi, boshlang‘ich tashkilot faoliyati uchun zarur bo‘lgan moddiy texnika bazasi ya’ni yetakchi (rahbar) stol-stuli, kengash a’zolari uchun 1 ta stol va 15 ta yumshoq o‘rinli stullar, 1 dona kompyuter jamlanmasi, 3/1 printer bilan ta’minlanishi, xonada mavjud 1 ta kiyim shkafi va 2 ta kitob javonlarini boshlang‘ich tashkilot ixtiyoriga o‘tkazilishi hamda 2 ta jalyuzi pardalarni o‘rnatilishi yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilanib, ijrosi ta’minlansin.

***Mas’ullar: MIIB prorektor A.Salimov, Bosh hisobchi O‘.Nazarov***

6. O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Farg‘ona politexnika institutidagi boshlang‘ich tashkiloti faoliyatini yangi, zamonaviy, davr talablariga hos bosqichga olib chiqish, talaba-yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, har tomonlama qo‘llab – quvvatlash maqsadida 2021 yil 14 aprel kuni institut madaniyat saroyida “Yoshlar anjumani” (keyingi o‘rinlarda “Anjuman” deb yuritiladi) tashkil etilsin.

7. Anjumanda guruh yetakchilari, fakultet kengashi a’zolari va yetakchisi hamda institut Kengashi a’zolari ishtirokini ta’minlash, tadbir o‘tishi uchun zarur tashkiliy ko‘mak berish hamda qo‘llab-quvvatlash ishlari ta’minlansin.

***Mas’ullar: YBIB prorektor I.Xoliddinov, MIIB prorektor A.Salimov, fakultet dekanlari***

8. Anjuman ishini institut veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlar hamda OAVlarda keng yoritish belgilansin.

***Mas’ullar: Matbuot kotibi Sh.Usmonov, kengash matbuot kotiblari***

*Asos: O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Farg‘ona politexnika instituti boshlang‘ich tashkiloti yetakchisi B.Abduxalilov tomonidan tayyorlangan buyruq loyihasi*

**Rektor**

**(imzolangan)**

**O‘.R.Salomov**

**O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Farg‘ona politexnika institutidagi  
Talabalar Kengashi to‘g‘risidagi  
NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1.1. Mazkur Nizom O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Farg‘ona politexnika institutidagi Talabalar Kengashi faoliyatini tartibga soladi.

1.2. O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Farg‘ona politexnika institutidagi Talabalar Kengashi Yoshlar ittifoqining maqsad-vazifalarini institut miqyosida amalga oshiradigan, institutdagi talaba-yoshlarni o‘z atrofida birlashtiradigan, ularning manfaatlari va huquqlarini himoya qiladigan eng quyi tuzilma hisoblanadi.

1.3. Talabalar Kengashi institutda O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faoliyatini amalga oshiradi.

1.4. Institutdagi Talabalar Kengashiga O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi Ijroiya Qo‘mitasi qarori bilan yuridik shaxs maqomi berilishi mumkin. Mazkur masalani ko‘rib chiqishda birinchi navbatda uning moliyaviy imkoniyatlari hisobga olinadi.

1.5. Talabalar Kengashi faoliyati O‘zbekiston yoshlar ittifoqining tegishli mahalliy Kengashlari hamda institut tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

1.6. Talabalar Kengashi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, amaldagi qonun hujjatlari, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Ustavi, institut faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda mazkur Nizom asosida amalga oshiradi.

1.7. Talabalar Kengashining to‘liq nomi:

davlat tilida kirill yozuvida — O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Farg‘ona politexnika institutidagi Talabalar Kengashi;

davlat tilida lotin yozuvida - O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Farg‘ona politexnika institutidagi Talabalar Kengashi;

rus tilida — Studencheskiy Sovet Soyuz molodeji Uzbekistana v Ferganskiy politexnicheskiy institut;

ingliz tilida - Students Union of youth union of Uzbekistan in Fergana politechnical institution.

**II. Talabalar Kengashining maqsad va vazifalari**

2.1. Talabalar Kengashining asosiy maqsadi institutda yoshlarning ta’lim-tarbiya olishi uchun munosib sharoit yaratib berishga ko‘maklashish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda har tomonlama barkamol shaxslar bo‘lib yetishiga munosib hissa qo‘shishdan iborat.

2.2. Talabalar Kengashi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- saylovoldi dasturida belgilangan chora-tadbirlarni, amaliy ishlarni, loyihalarni institut miqyosida samarali tashkil etish va o‘tkazish;

- institutdagi talaba-yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan loyihalarni tashkil etish va o‘tkazish;

- institut yoshlarining muammolari, ta’lim sifati, fanlarni o‘zlashtirishi, darsliklardan va kutubxonadan foydalanish darajasini o‘rganib va tahlil asosida institut ma’muriyati bilan muzokara olib borish, yoshlar murojaatlarini ko‘rib chiqish va hal etishda ko‘maklashish;

- yoshlarning bilim olishi, chet tillarini o'rganishi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashi hamda ularni kasb-hunarga yo'naltirishga qaratilgan loyihalarni o'tkazish platformasini yaratish;

- iste'dodli yoshlarni kashf etish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish, intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashadigan klub va to'garaklar faoliyatini tashkil etishda ko'maklashish;

- imkoniyati cheklangan hamda ijtimoiy himoyaga muxtoj yoshlarning inklyuziv ta'lim olishi uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan faoliyatni qo'llab-quvvatlash;

- yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, ularning kitobga bo'lgan muhabbatini oshirish va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;

- institut yoshlari o'rtasida yoshlar turizmini rivojlantirish, ularning o'zlari yashayotgan hududdagi tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar, muzeylar, teatrlar, mustaqillik davrida barpo etilgan inshootlarga tashriflarini uyushtirish;

- yoshlar, ayniqsa, talaba-qizlar o'rtasida sportni keng targ'ib etish, ularning sportga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash hamda turli sport musobaqalarida ishtirok etishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish;

- ommaviy axborot vositalarida (ijtimoiy tarmoqlarda) o'z maqsad va vazifalarini ilgari surgan holda faol fuqarolik pozitsiyasini saqlash hamda tahliliy-tanqidiy munosabat bildirish va nodavlat-notijorat tashkilotining eng quyi bo'g'ini sifatida O'zbekiston yoshlar ittifoqining huquq va manfaatlarini himoya qilish;

- rus (va boshqa) tillarda ta'lim oluvchi talaba-yoshlar uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berish va institutdagi ayni shu qatlamdagi talabalarni to'liq qamrab olgan holda faoliyat olib borish.

### **III. Talabalar Kengashining huquq va majburiyatlari**

#### **3.1. Talabalar Kengashining huquqlari quyidagilardan iborat:**

- institut yoshlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan o'quv, tarbiya va boshqa jarayonlarda ishtirok etish, mas'ul xodimlar va professor-o'qituvchilardan zarur ma'lumotlarni olish hamda nazorat qilish;

- institutdagi darslar sifati, professor-o'qituvchilar saviyasi va talaba-yoshlar bilan munosabati, shuningdek, kutubxona, sport obyektlari faoliyatini o'rganish, reydlar, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

- institutdagi sharoitlardan foydalanish, yoshlar ishtirokida to'garaklar, klublar tashkil etish, ish rejadagi chora-tadbirlarning institut tomonidan moliyalashtirilishini talab etish hamda homiy va hamkorlarni jalb etish;

- institut yoshlarining muammolari, taklif-tashabbuslari yuzasidan institut rektori va yuqori turuvchi tashkilotlarga takliflar kiritish;

- nizomda belgilangan tartibda institutda qo'shimcha tuzilmalarini tashkil etish;

- faoliyatiga doir ma'lumotlarni tarqatish va targ'ib etish;

- ijtimoiy himoyaga muxtoj hamda turli yutuqlarga erishgan va institut obro'sini ko'tarishga munosib hissa qo'shgan talaba-yoshlarga institut rahbariyati tomonidan moddiy yordam va moddiy rag'bat ajratilishi masalasini ko'rib chiqish, tegishli qarorlar qabul qilish;

- Talabalar kengashi a'zolari faoliyatlari natijadorligi, kengash ishiga qo'shgan hissasini inobatga olib, har chorakda bir marotaba bazaviy stipendiyaning bir barobaridan ikki barobarigacha miqdorda moddiy rag'batlantirish olish;

- talabalar kengashi tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlardan ham foydalanishi mumkin.

3.2. Talabalar Kengashi a'zolarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunlari, Yoshlar ittifoqi hamda institut tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar doirasida faoliyat yuritish, ularda belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish;

- Yoshlar ittifoqining mahalliy Kengashi hamda institut rahbariga o'z faoliyati to'g'risida hisobotlarni o'rnatilgan tartibda taqdim etib borish;

- Talabalar Kengashi uchun ajratilgan xonalar, moddiy-texnik vositalar va mablag'lardan to'g'ri foydalanish;

- institutning o'quv, tarbiya va boshqa ishlariga ko'maklashish.

#### **IV. Talabalar Kengashining tashkiliy tuzilishi va tarkibga a'zo bo'lish tartibi**

4.1. Talabalar Kengashining tashkiliy tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

- Yoshlar yetakchisi – Kengash ishini muvofiqlashtiruvchi;

- Talabalar Kengashi raisi;

- Talabalar Kengashi a'zolari;

- Fakultet yetakchisi;

- Fakultet talabalar kengashi a'zolari;

- Talabalar turar joyi Talabalar Kengashi raisi va a'zolari

- Talabalar Kengashi qoshidagi tuzilmalar (to'garaklar, klublar va boshqalar).

4.2. Kengash muhokamalari faoliyati tartibi:

- Yoshlar anjumani ya'ni umumiy yig'ilish - Talabalar Kengashining rahbar organi hisoblanadi;

- umumiy yig'ilish har chorakda bir marta o'tkaziladi (istisno tariqasida boshqa vaqtlarda ham o'tkazilishi mumkin);

- umumiy yig'ilishda Talabalar Kengashi – Yoshlar kengashi a'zolari, tashabbuskor yoshlar guruhi a'zolari, guruh yetakchilari, fakultet kengashi a'zolari va yetakchisi, Talabalar turar joyi kengashi raisi va a'zolari - Yoshlar ittifoqining a'zolari ishtirok etadi.

- muhokama yig'ilishlari har oyda bir marta o'tkazilib, talabalar murojaatlari o'rganib chiqiladi, kengash faoliyatiga oid muhim masalalar muhokama etiladi.

4.3. Yoshlar yetakchisining vazifasi va faoliyat tartibi:

- Yoshlar yetakchisi Yoshlar ittifoqining institutdagi Talabalar Kengashi faoliyatining huquqiy bazasini nazorat qiladi hamda Talabalar (yoshlar) Kengashi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

- Talabalar (yoshlar) Kengashi faoliyatiga uslubiy ko'mak ko'rsatadi, a'zolarining taklif-tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi;

- institut yoshlarining huquq va manfaatlarini himoya qiladi;

- yoshlar masalalariga oid davlat qarorlari va dasturlari ijrosini ta'minlaydi;

- yuqori tashkilotlar va institut rahbariga Talabalar Kengashi faoliyati yuzasidan so'ralgan ma'lumot, axborot va hisobotlarni taqdim etib boradi;

- Talabalar kengashi hujjatlarini saqlash va tegishli hisobotlarni yuritib boradi;

- Talabalar Kengashi uchun ajratilgan xona, moddiy-texnik vositalar va mablag'lardan maqsadli foydalanishni ta'minlaydi.

4.4. A'zolik istagini bildirgan, bugungi kun islohotlaridan xabardor va tashkilotchi, fidoiy, tartib-intizomli, dunyoqarashi keng va halollik hususiyatlariga ega bo'lgan yoshlar orasidan tegishli fakultet yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari tavsiyasiga ko'ra, fakultet Talabalar kengashi a'zolari fakultet Yoshlar ittifoqi raisi tomonidan shakllantiriladi. Kengash a'zolari fakultet obro'-e'tiborini ko'tarishda, strategik maqsadlarini amalga oshirishda ko'maklashishi lozim.

4.5. Institut yoshlar ittifoqining Talabalar kengashi a'zoliqi uchun har o'quv yilining boshida ya'ni oktyabr oyining birinchi o'n kunligida fakultet yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari yoki fakultet yetakchisi tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar institut Yoshlar ittifoqi yetakchisi va Kengash a'zolari ishtirokidagi suhbat natijalariga ko'ra, shakllantiriladi. Kengash a'zolari umumiy yig'ilishda e'lon qilinadi.

## **V. Talabalar Kengashi tomonidan talabalarni rag'batlantirish hamda moddiy ko'mak berish tartibi**

**5.1.** Talabalar Kengashining muhokama yig'ilishlarida institut rektori nomiga ijtimoiy himoyaga muxtoj ekanligi yoki tanlov, musobaqa g'olibliqi yohud chet tillarini aniqlash sertifikatini olganligi to'g'risidagi ma'lumot aks etgan hamda amaliy yordam so'rab murojaat qilgan talabalar arizalari belgilangan tartibda ko'rib chiqilib, 5.2 va 5.3-banddagi mezonlar asosida talabalarni rag'batlantirish jamg'arma mablag'lari hisobidan stipendiyaning bazaviy miqdorlari hisobida moddiy rag'bat yoki yordam berish masalasini institut rahbariyatiga taqdim etadi.

**5.2.** Alohida iqtidorga ega, rasmiy ravishda o'tkazilgan xalqaro, respublika va institut miqyosida o'tkazilgan fan olimpiadalari, sport musobaqalari, turli tanlov g'oliblari, shuningdek, talabalar uchun o'quv kurslar va to'garaklar tashkil etganligi uchun tegishli hujjatlariga muvofiq quyidagi tartibda rag'batlantirish amalga oshiriladi.

Alohida hollar, xususan, yuqori turuvchi organlar tavsiyasiga ko'ra, taqdim etilgan me'yoriy hujjatlarda belgilangan miqdorda, shuningdek, institut rahbariyati tashabbusi bilan rag'batlantirish miqdorlariga o'zgartirish kiritish va mustaqil belgilash vakolatlari bilan ham moddiy rag'batlantirishga ruxsat berilishi mumkin.

<b>Daraja</b>	<b>G'oliblik o'rni</b>	<b>Ajratiladigan bazaviy stipendiya baravari miqdori</b>	<b>To'lov turi</b>
<b>Rasmiy (institut nomidan ishtirok etsa) fan olimpiadalari, Sport musobaqalari, Ilmiy-ijodiy tanlovlar</b>			
<b>Fakultet miqyosida</b>	<b>1-o'rin</b>	<b>1 barobargacha</b>	<b>Rag'batlantirish</b>
<b>Institut miqyosida</b>	<b>1-o'rin</b>	<b>3 barobargacha</b>	<b>Rag'batlantirish</b>
<b>Respublika miqyosida</b>	<b>1,2,3-o'rin</b>	<b>6 barobargacha (umumiy summa 4 mlndan oshmagan holda)</b>	<b>Rag'batlantirish</b>
<b>Xalqaro miqyosida</b>	<b>1,2,3-o'rin</b>	<b>8 barobargacha (umumiy summa 4 mlndan oshmagan holda)</b>	<b>Rag'batlantirish</b>
<b>Rasmiy hujjatlarda aks etgan xorijiy va mahalliy til o'rganish bo'yicha yutuqlar</b>			
<b>Imtixonlardan ijobiy baho olgan holda Sertifikat egasi (IELTS uchun)</b>	<b>Overall band score</b>	<b>bazaviy stipendiya baravari miqdori</b>	<b>Rag'batlantirish</b>
	<b>5.5</b>	<b>0.5 (yarim)</b>	<b>Rag'batlantirish</b>
	<b>6.0</b>	<b>1 (bir)</b>	<b>Rag'batlantirish</b>
	<b>6.5</b>	<b>1.5 (bir yarim)</b>	<b>Rag'batlantirish</b>

	<b>7.0 va undan yuqori</b>	<b>O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligi tomonidan moliyalashtiriladi</b>	Rag‘batlantirish
<b>Talabalar uchun o‘quv kurslar va to‘garaklar tashkil etganligi uchun</b>			
<b>Kurs yoki to‘garak rahbari</b>	<b>Kamida 2 oy mobaynida</b>	<b>1 barobargacha</b>	<b>Rag‘batlantirish</b>

5.3. Alohida hollarda talabalarning ijtimoiy vaziyatini inobatga olib, tegishli asoslovchi hujjatlar, holatdan kelib chiqib, tibbiy punkt vrachi munosabati bildirgan holda tegishli tartibda quyidagi mezonlar asosida moddiy yordam ajratilishi mumkin.

<b>Holatlar</b>	<b>Ajratiladigan bazaviy stipendiya baravari miqdori</b>	<b>To‘lov turi</b>
<b>Kasallik bog‘liq holatlar</b>		
<b>*Talabani o‘zini davolanishi uchun</b>	<b>1 barobargacha</b>	<b>Moddiy yordam</b>
<b>“Temir daftar” ro‘yhatida turgan oila farzandi</b>	<b>1-8 barobargacha (umumiy summa 4 mlndan oshmagan holda)</b>	<b>Moddiy yordam</b>
<b>“Ayollar yoki Yoshlar daftari”ga kiritilgan oila farzandi</b>	<b>1-5 barobargacha (umumiy summa 4 mlndan oshmagan holda)</b>	<b>Moddiy yordam</b>
<b>Chin yetim bo‘lgan talabalar</b>	<b>1-8 barobargacha (umumiy summa 4 mlndan oshmagan holda)</b>	<b>Moddiy yordam</b>
<b>Nogironligi mavjud yoki oilasida nogiron ota-ona yohud aka-uka, opa-singlisi bo‘lgan talabalar</b>	<b>1-8 barobargacha (umumiy summa 4 mlndan oshmagan holda)</b>	<b>Moddiy yordam</b>
<b>Oilasida 2 va undan ko‘p to‘lov-kontraktida o‘qiydigan kam ta‘minlangan talabalar</b>	<b>1-3 barobargacha</b>	<b>Moddiy yordam</b>
<b>Boquvchisini yo‘qotgan yoki kam ta‘minlangan talabalar</b>	<b>1 barobargacha (talaba-qizlar uchun 3 barobargacha)</b>	<b>Moddiy yordam</b>
<b>Oila a‘zolari vafoti bilan bog‘liq holatlar</b>		
<b>Talabani o‘zi vafot etsa</b>	<b>8 barobargacha (umumiy summa 4 mlndan oshmagan holda)</b>	<b>Moddiy yordam</b>
<b>Otasi yoki onasi vafoti</b>	<b>3 barobargacha</b>	<b>Moddiy yordam</b>
<b>Farzandi yoki turmush o‘rtog‘i vafoti</b>	<b>2 barobargacha</b>	<b>Moddiy yordam</b>

5.4. Institutda tahsil oladigan ijtimoiy himoyaga muxtoj bo‘lgan har bir talaba 5.3-bandda kiritilgan ijtimoiy holati mavjud bo‘lgan taqdirda faqat bir yo‘nalish bo‘yicha bir yilda bir marotaba moddiy yordam olishi belgilanadi.

#### **VI. Talabalar Kengashi a‘zolarining vazifalari**

**6.1.** Yoshlar yetakchisining birinchi o‘rinbosari – Kengash ishini muvofiqlashtirish, a‘zolar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish, kengash to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni jamlash vazifalarini bajarib, institut yetakchisi ma‘lum sabablarga ko‘ra, kengash ishida ishtirok eta olmagan taqdirda Kengash muhokamalarini o‘tkazish va tegishli qarorlar qabul qilish bilan shug‘ullanadi. Kengash muhokamalari o‘tkazishni tashkil etadi. Faoliyati yuzasidan reja tuzib, Yoshlar yetakchisiga tasdiqlatib, chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlab, kengashga taqdim etadi.

- Faol va iqtidorli yoshlar bilan ishlash yo‘nalishi yetakchisi – fakultet kengashlarida shu yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan kengash a‘zolari bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatib, iqtidorli va faol bo‘lgan yoshlar ma‘lumotlar bazalarini shakllantirish, ular bilan o‘quv yiliga reja tuzgan holda talabalar bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga ko‘maklashadi. Faoliyati yuzasidan reja tuzib, Yoshlar yetakchisiga tasdiqlatib, chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlab, kengashga taqdim etadi.

- Tashabbus va yoshlar tadbirkorligi yo‘nalishi yetakchisi - fakultet kengashlarida shu yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan kengash a‘zolari bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatib, yoshlar orasida biznes va tadbirkorlikka qiziqqan, bankdan kredit olish masalalari va ularni huquqiy bilimlarini mustahkamlash maqsadida tegishli ishlarni amalga oshiradi. Faoliyati yuzasidan reja tuzib, Yoshlar yetakchisiga tasdiqlatib, chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlab, kengashga taqdim etadi.

- Muddatli harbiy xizmatni o‘tab, o‘qishga qabul qilingan talabalar bilan ishlash yo‘nalishi yetakchisi - fakultet kengashlarida shu yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan kengash a‘zolari bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatib, muddatli harbiy xizmatni o‘tab, o‘qishga qabul qilingan talabalar haqidagi ma‘lumotlar bazasini shakllantirib, o‘quv yili davomida ishlarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha reja tuzgan holda institut tashkiliy tadbirlarida ko‘maklashish, “Mobil guruh” faoliyatini yo‘lga qo‘yish, TTJda tartib-intizomni saqlash yuzasidan tegishli choralar ko‘radi. Faoliyati yuzasidan reja tuzib, Yoshlar yetakchisiga tasdiqlatib, chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlab, kengashga taqdim etadi.

- Yoshlar yetakchisining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari - fakultet kengashlarida shu yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan kengash a‘zolari bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatib, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar rejasini tuzadi, reja bo‘yicha ishlarni amalga oshirish yuzasidan nazoratni olib boradi. Yoshlarning ma‘naviy-ma‘rifiy sohadagi bilimlarini oshirish maqsadida intellektual o‘yinlar tashkil etadi. Faoliyati yuzasidan reja tuzib, Yoshlar yetakchisiga tasdiqlatib, chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlab, kengashga taqdim etadi.

- Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va yoshlar turizmi yo‘nalishi yetakchisi - fakultet kengashlarida shu yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan kengash a‘zolari bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatib, yoshlar orasida sayohatlar tashkil etish rejalarini tuzib, qadimiy yodgorliklar, tarixiy obidalar, muzeylar, istirohat va ko‘ngilochar bog‘larga tashriflar, zamonaviy arxitektura inshootlariga amaliy tashriflar uyushtirish bilan shug‘ullanadi. Faoliyati yuzasidan reja tuzib, Yoshlar yetakchisiga tasdiqlatib, chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlab, kengashga taqdim etadi.



Sport, salomatlik yoʻnalishi yetakchisi – fakultet kengashlarida shu yoʻnalishda faoliyat olib borayotgan kengash aʼzolari bilan mustahkam aloqalarni oʻrnatib, talabalarni muntazam sport bilan shugʻullanishi uchun alohida reja ishlab chiqib, yil davomida amalga oshirilishini taʼminlaydi. Faoliyati yuzasidan reja tuzib, Yoshlar yetakchisiga tasdiqlatib, chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlab, kengashga taqdim etadi.

- Ijtimoiy himoyaga muhtoj va imkoniyati cheklangan talabalar bilan ishlash yoʻnalishi yetakchisi - fakultet kengashlarida shu yoʻnalishda faoliyat olib borayotgan kengash aʼzolari bilan mustahkam aloqalarni oʻrnatib, shu yoʻnalishdagi talabalar maʼlumotlar bazasini shakllantirib, moddiy va maʼnaviy koʻmak berish masalalarini kengash muhokamalariga olib chiqadi. Faoliyati yuzasidan reja tuzib, Yoshlar yetakchisiga tasdiqlatib, chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlab, kengashga taqdim etadi.

- Tashkiliy-nazorat va kadrlar yoʻnalishi yetakchisi - fakultet kengashlarida shu yoʻnalishda faoliyat olib borayotgan kengash aʼzolari bilan mustahkam aloqalarni oʻrnatib, kengash aʼzolari faoliyati yuzasidan nazoratni olib borib, kadrlar masalasini kengash muhokamalariga olib chiqadi. Oʻz ishiga masʼuliyatsizlik bilan qaragan, layoqatsiz boʻlgan kengash aʼzolarini aniqlab, almashtirish yuzasidan takliflash ishlab chiqadi. Kengash muhokamasi boʻladigan kun va vaqtini aʼzolarga yetkazadi. Faoliyati yuzasidan reja tuzib, Yoshlar yetakchisiga tasdiqlatib, chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlab, kengashga taqdim etadi.

- Taʼlim sifatini nazorat qilish va monitoring yoʻnalishi yetakchisi - fakultet kengashlarida shu yoʻnalishda faoliyat olib borayotgan kengash aʼzolari bilan mustahkam aloqalarni oʻrnatib, kengash aʼzolari faoliyati yuzasidan nazoratni olib borib, taʼlim jarayoni bilan bogʻliq takliflarni, yangi gʻoyalarni izlab topish, sifatini oʻrganish va bu boʻyicha tegishli fakultet oʻquv ishlari boʻyicha dekan oʻrinbosari bilan hamkorlikda taʼlim sifatini oshirish yuzasidan ishlarni tashkil etish bilan shugʻullanadi. Faoliyati yuzasidan reja tuzib, Yoshlar yetakchisiga tasdiqlatib, chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlab, kengashga taqdim etadi.

- Talabalar murojaatlari bilan ishlash yoʻnalishi yetakchisi - fakultet kengashlarida shu yoʻnalishda faoliyat olib borayotgan kengash aʼzolari bilan mustahkam aloqalarni oʻrnatib, murojaatlar boti faoliyatini yoʻlga qoʻygan holda murojaatlarni tahlil qilib, tegishliligi boʻyicha kengash aʼzolariga yoki raisga taqdim etadi. Tahlil natijalari yuzasidan hisobot tayyorlaydi. Faoliyati yuzasidan reja tuzib, Yoshlar yetakchisiga tasdiqlatib, chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlab, kengashga taqdim etadi.

- Boshlangʻich tashkilotning mehnat jamoasidagi yetakchisi – mehnat jamoasida yoshlar tarkibi haqidagi maʼlumotlarni aniqlash, yigʻish, tahlil qilish, ular bilan yoshlar tadbirlarida ishtirok etishlarini taʼminlash, turli tanlov, mukofotlarga eʼlonlar berish, nomzodlarni tavsiya etish masalalari bilan shugʻullanadi. Faoliyati yuzasidan reja tuzib, Yoshlar yetakchisiga tasdiqlatib, chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlab, kengashga taqdim etadi.

- Boshlangʻich tashkilotning Talabalar turar joylaridagi yetakchisi - TTJ da talabalarni belgilangan Nizom va shartnoma asosida tartibli yashashini tashkil qilish va nazorat qilish, TTJga kirib-chiqishni nazorat qilish bilan birga talabalar turar joyi

talabalarini turli tadbirlar, tanlovlar va musobaqalarda faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Faoliyati yuzasidan reja tuzib, Yoshlar yetakchisiga tasdiqlatib, chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlab, kengashga taqdim etadi.

- Matbuot kotibi, yoshlar media guruhi rahbari - fakultet kengashlarida shu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan kengash a'zolari bilan mustahkam aloqalarni o'rnatib, ularga uslubiy va amaliy yordam beradi. Kengash va OTM faoliyatini OAVlarda, ijtimoiy tarmoqlarda yoritish ishlarini tashkil etib, nufuzini oshirishga oid rejalar ishlab chiqadi hamda chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlab, kengashga taqdim etadi.

## **VII. Talabalar Kengashi faoliyatini tugatish**

7.1. Talabalar kengashi faoliyatini tugatishga asosli sabablar bo'lsa, uning faoliyati umumiy yig'ilish qarori bilan o'rnatilgan tartibda tugatiladi.

<b>Farg'ona politexnika instituti Yoshlar Kengashi – Talabalar Kengashi a'zolari haqida MA'LUMOT</b>					
<b>№</b>	<b>Lavozimi</b>	<b>F.I.Sh</b>	<b>Rasm (3x4)</b>	<b>Fakultet va guruhi</b>	<b>Telefon (Telegram) raqami</b>
1	Yoshlar yetakchisi				
2	Yoshlar yetakchisining birinchi o'rinbosari				
3	Faol va iqtidorli yoshlar bilan ishlash yo'nalishi yetakchisi				
4	Tashabbus va yoshlar tadbirkorligi yo'nalishi yetakchisi				
5	Ta'lim jarayoni sifatini monitoring qilish yo'nalishi yetakchisi				

6	Muddatli harbiy xizmatni o'tab, o'qishga qabul qilingan talabalar bilan ishlash yo'nalishi yetakchisi				
7	Yoshlar yetakchisining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari				
8	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va yoshlar turizmi yo'nalishi yetakchisi				
9	Sport, salomatlik yo'nalishi yetakchisi				
10	Ijtimoiy himoyaga muhtoj va imkoniyati cheklangan talabalar bilan ishlash yo'nalishi yetakchisi				
11	Tashkiliy-nazorat va kadrlar yo'nalishi yetakchisi				

12	Talabalar murojaatlari bilan ishlash yo'nalishi yetakchisi				
13	Boshlang'ich tashkilotning mehnat jamoasidagi yetakchisi				
14	Boshlang'ich tashkilotning Talabalar turar joylaridagi yetakchisi				
15	Matbuot kotibi, yoshlar media guruhi rahbari				

Mexanika-mashinasozlik fakulteti Yoshlar Kengashi a'zolari  
Energetika fakulteti Yoshlar kengashi a'zolari  
Qurilish fakulteti kengashi a'zolari  
Ishlab chiqarishda boshqaruv fakulteti Yoshlar kengashi a'zolari  
Kimyo-texnologiya fakulteti Yoshlar kengashi a'zolari  
Yengil sanoat va to'qimachilik fakulteti Yoshlar kengashi a'zolari  
Kompyuterlashgan loyihalash tizimlari fakulteti kengashi a'zolari

## **Farg'ona politexnika instituti talabalar turar joylarida "Talabalar Kengashi" faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi NIZOM**

### **I. Umumiy qoidalar**

1.1. Talabalar Kengashi (bundan keyin "Kengash" deb yuritiladi) talabalar turar joylarida yashovchi talabalar tomonidan saylanadigan talaba-yoshlarning o'zini-o'zi boshqarishga qaratilgan talabalar jamoasi hisoblanadi.

1.2. Har bir Talabalar turar joyining Kengash a'zolari talabalar turar joyida yashaydigan, yaxshi va a'lo baholarga o'qiydigan, jamoat ishlarida faol ishtirok etadigan, talabalar hayotini har tomonlar yaxshi biladigan hamda bu sohada mustaqil fikr yurita oladigan, talabalar manfaatini himoya qilish salohiyatiga ega bo'lgan faollar safidan demokratik asoslarda saylanadi.

1.3. Talabalar turar joyida tashkil etilgan kengash, yashovchilarning faoliyatlarini boshqarish, o'qish sharoitlarini yaxshilash, talaba-yoshlarning ijtimoiy-madaniy, huquqiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va ularni ijtimoiy himoya qilish maqsadida tashkil etiladi hamda faoliyat ko'rsatadi.

### **II. Talabalar Kengashining asosiy vazifalari**

2.1. Kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

A) Talabalar turar joyida institut rektori tomonidan tasdiqlangan normativ qoidalarga rioya qilish, tartib-intizom, ozodalikni yo'lga qo'yishni ta'minlaydi va Talabalar turar joyi Nizomi qoidalarini buzuvchi talabalarga nisbatan qat'iy choralar qo'llanishini yo'lga qo'yadi;

B) o'quv yili davomida talabalar turar joylarida uchrashuvlar, badiiy kechalar va talabalarning hayotiy faoliyatiga oid turli tadbirlar o'tkazilishini ta'minlaydi;

V) Talabalar turar joylarida tozalik, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun hasharlarni ko'ngilli tarzda uyushtiradi;

G) Talabalar turar joylarida sog'lomlashtirishga qaratilgan ommaviy sport musobaqalarini tashkil etadi;

D) Talabalar turar joylari hududida bayramlarning shodiyona tarzda o'tkazilishi bo'yicha tashkilotchilik ishlarini olib boradi;

Ye) "**Yosh posbonlar**" hamda talabalar turar joylari joylashgan mahalla bilan hamkorlikda ishlashga, mahalla posbonlari ishining muntazam va samarali ishlashiga ko'maklashadi.

### **III. Talabalar Kengashi a'zolarini saylash va faoliyati tartibi**

3.1. Kengashning ishi o'zini-o'zi boshqarish asosida institutning barcha TTJlarida alohida demokratik tarzda tashkil etiladi. Saylovlarga barcha TTJda istiqomat qiladigan talabalar o'z nomzodligini e'lon qilishi mumkin. Saylovga qo'yilgan nomzodlar amalga oshirishi rejalashtirilgan ishlari yuzasidan qisqa taqdimot tayyorlaydi va qavatda yashovchi talabalar jam bo'lgan telegram guruhda e'lon qiladi. Qavat nazoratchilari saylovlari har yili o'quv yili boshida oktyabr oyining ikkinchi o'n kunligida o'tkaziladi. Kengash raisi saylovi saylangan qavat nazoratchilari orasidan har tomonlama bilim va ko'nikmaga ega, tartibli, fidoiy bo'lgan talaba ochiq ovoz berish yo'li bilan institut yoshlar ittifoqi yetakchisi, Talabalar kengashi a'zolari va qavat nazoratchilari ishtirokida oktyabr oyining uchinchi o'n kunligida saylanadi.

Saylovlar 2020/2021 o'quv yili uchun istisno tariqasida fevral oyining birinchi o'n kunligida o'tkaziladi.

3.2. Kengash faoliyatini kengash a'zolari tomonidan bir yil muddatga saylangan Kengash raisi boshqaradi.

3.3. Kengash raisining faoliyat ko'rsatish maqomi ushbu Nizom asosida belgilanadi va talabalar turar joyi direktori o'rinbosari hisoblanadi.

3.4. Kengash yig'ilishi haftada bir marta haftaning juma kuni o'tkaziladi, zarur hollarda navbatdan tashqari Kengash yig'ilishlari Kengash raisi tomonidan chaqiriladi.

3.5. Kengash quyidagi masalalar doirasida faoliyat olib boradi:

a) kengash TTJdagi talabalar faoliyatlari yuzasidan muammo va takliflarni ishlab chiqish va tegishli qarorlar qabul qilish;

b) kengashning navbatdagi vazifalari va ish rejalarini belgilash;

v) kengashning raisi faoliyatining vazifalari va huquqiy normativ asoslarini belgilash, qo'shimchalar kiritish, zarur bo'lgan hollarda uni vazifasidan ozod etish va yangi kengash raisini muddatidan oldin saylash va tegishli qarorlar qabul qilish;

g) O'zbekiston yoshlar ittifoqi talabalar Kengashi va fakultetlar talabalar kengashlari qarorlari asosida zarur bo'lgan holatlarda kengash a'zolarini a'zolikdan chiqarish, tavsiya etilgan nomzodlarni a'zolikka saylash;

d) kengash mazkur Nizom asosida rektor tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar, ichki tartib – qoidalarga hamda xodimlari kasaba uyushmalari, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Nizomlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda ish yuritadi.

3.5. Kengash tarkibi. Kengash raisi – Umumiy TTJlar uchun 1 nafar, TTJning ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliy-ommaviy, maishiy-tozalik va sport-sog'lomlashtirish ishlari bo'yicha rais o'rinbosarlari (qavat nazoratchilari, har bir qavat uchun 1 nafar) – 20 nafar iborat tarkibda faoliyat olib boradi.

#### **3.6. Kengash tarkibi a'zolarining vazifalari:**

**A) Kengash raisining vazifasi** – TTJ da talabalarni belgilangan Nizom va shartnoma asosida tartibli yashashini tashkil qilish va nazorat qilish, TTJga kirib-chiqishni nazorat qilish. TTJ bo'yicha o'rinbosarlar tomonidan berilgan kunlik ma'lumotni Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i va TTJ direktoriga taqdim etib borish.

**B) Kengash raisi o‘rinbosarlari (qavat nazoratchilari) vazifalari –** o‘ziga birlashtirilgan qavatlarida tozalik bo‘yicha navbatchilikni tashkil etish, kunlik davomatni tekshirish, talabalarni yotoqqa kelib-ketish vaqtini nazorat qilish va bu haqida TTJ bo‘yicha kengash raisiga kunlik hisobot berib borish. TTJda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil qilish, TTJda yashayotgan talabalarning yashash sharoitlarini nazorat qilish, o‘rganish va tahlil qilib borish, talabalarni belgilangan nizom va shartnoma asosida tartibli yashashini tashkil etish va uni nazorat qilish.

#### **IV. Talabalar Kengashi a‘zolarining huquq va burchlari**

4.1. Talabalar Kengashi a‘zolari ish faoliyatidan kelib chiqqan holda TTJda bepul turish imkoniyatiga ega bo‘lishi, TTJda yoshlarni bilimlarini oshirishga qaratilgan o‘quv kurslarini (chet tillari, kompyuter dasturlari, qizlarga hunar o‘rgatish kurslari) tashkil qilib, doimiy ravishda o‘rgatib kelayotgan iqtidorli talaba-yoshlar Talabalar kengashi tavsiyasi asosida institut rahbariyati tomonidan moddiy rag‘batlantiriladi. Boquvchisini yo‘qotgan talaba-qizlar va turli tadbirlar va tanlovlarda faol ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallagan talabalarni institut Yoshlar ittifoqi Talabalar kengashi tavsiyasi bilan Talabalar Kengashi qarori asosida institut rahbariyati tomonidan moddiy rag‘bat yoki moddiy yordam berilishi;

4.2. Kengashning barcha yig‘ilishlarida hal qiluvchi ovozga ega bo‘lishi;

4.3. Institut talabalar Kengashining talabalar hayotiga oid majlislarida vakolatga ega bo‘lishi;

4.4. Talabalar turar joyida talabalarni karantin davrida tegishli qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qilish;

4.5. Institut hududining tozaligi va sanitar holati talab darajasida bo‘lishini ta‘minlash;

4.6. Talabalar turar joylari hududida tartib-intizomni ta‘minlashda milisiya tayanch punkti bilan hamkorlikda ish olib borish;

4.7. Talabalar o‘rtasida ma‘naviy-ma‘rifiy, axloqiy-tarbiyaviy mavzularda, O‘zbekiston qahramonlari, deputatlar, hokimliklar, prokuratura, sud, tuman va shahar ichki ishlar xodimlari, fan xodimlari ishtirokida davra suhbatlari, badiiy kechalar tashkil etish;

4.8. Turli yuqumli kasalliklar, giyohvandlik, ichkilikbozlik va fohishabozlik kabi inson hayoti uchun xavfli, ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan hodisalar, illatlarga qarshi talaba yoshlarni o‘rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borish;

4.9. Talabalarni fan, adabiyot, san‘at va kasb-hunar sohalardagi ijodiy iste‘dodlarini namoyish etishlariga hamda tadbirkorlik ishlarini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratish bo‘yicha takliflar kiritish.

4.10. Kengashning ushbu Nizomiga ish jarayonida to‘plangan tajriba, muammolar, istak va takliflardan kelib chiqib, qo‘shimcha hamda o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.